



BOLALARNING BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI SOHASI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Maxmudova G.B.

*Fan va texnologiyalar universiteti
"Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: MTT, bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalari, pedagog-tarbiyachilar, ta'lim-tarbiya, tasavvur, bilim, malaka, ko'nikma, faoliyat, qobiliyat, tarbiyalanuvchi.

Ключевые слова: МТТ, компетенции в области развития познавательного процесса, педагоги-воспитатели, образование, воображение, знания, компетентность, умение, активность, способности, ученик.

Key words: MTT, competences in the field of cognitive process development, pedagogues-educators, education, imagination, knowledge, competence, skill, activity, ability, pupil.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalarini shakllantirish, bolalarning tafakkurini rivojlantirish bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'ligini muhofaza qilish, bolalarni erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ahloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib maktab ta'limiga tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilarining mahorati, Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются формирование компетенций в области развития познавательного процесса дошкольников, развитие детского мышления, систематическое развитие компетенций в области развития познавательного процесса, условия для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития. развитие дошкольников с учетом создания передового зарубежного опыта, физическое, умственное, социально-эмоциональное развитие дошкольников в организациях дошкольного образования и охрана их здоровья, развитие свободного мышления, творческих способностей, моральная и духовная подготовка детей к школе. образование, мастерство педагогов и воспитателей дошкольных образовательных организаций, анализ передового опыта зарубежных стран, создание условий для развития детей дошкольного возраста в современных дошкольных образовательных организациях.

**SUMMARY:**

In this article, the formation of competencies in the field of cognitive process development of preschool children, the development of children's thinking, the systematic development of competencies in the field of cognitive process development, conditions for comprehensive intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children, taking into account advanced foreign experience creation, physical, mental, socio-emotional development of preschool children in preschool education organizations and protection of their health, development of children's free thinking, creative abilities, moral and morally perfect preparation for school education, skills of pedagogues and educators of preschool educational organizations, analysis of advanced experience of foreign countries, creation of conditions for development of preschool children in modern preschool educational organizations.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi, strategik vazifalar belgilab berildi, maktabgacha ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimizning bu sohadagi farmon va qarorlari mazkur jarayon uchun serzamin bo'ldi, ularning ijrosini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish vazifasi qo'yildi. Jumladan, Jahon bankining ta'limda global hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikda «Bolalarni ilk yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish» loyihasi doirasida 2019-2022 yillarda 10 million dollar miqdoridagi grant va 50 million dollar miqdoridagi imtiyozli kreditni maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirish bo'yicha loyiha kontseptsiyasi ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqalar ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, YuNISEF bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, sohaga oid ilg'or uslublar va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. «Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim» loyihasi doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari zarur metodik qo'llanmalar, dasturiy vositalar bilan ta'minlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqilganligi diqqatga sazovordir. Ta'lim berishning sifatini oshirish va bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini joriy etish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni yanada takomillashtiriladi. Qarorlarda ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yanada takomillashib, bolalarni maktab ta'limiga



tayyorlash ishlari samaradorligining oshishi ta'minlanadi. Bu esa har tomonlama sog'lom va barkamol bolalarni ulg'aytirish maqsadiga erishishga zamin yaratadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan. Bu hamkorlik o'z navbatida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etishga, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etishga, bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'minlashga, tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni bu jarayonga jalb qilish va ularning malakasini oshirishga hamda ko'ngilochar va bilim beruvchi ta'limiy o'yin faoliyat elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va faoliyatlar uyushtirish kabilarga xizmat qilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'ligini muhofaza qilish, bolalarni erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ahloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib maktab ta'limiga tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilarining mahorati, bilimi va tajribasiga bog'liq. Buning uchun ular tinimsiz izlanishi va o'rganishi lozim. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda ta'lim yo'nalishi bolalarning bilimga bo'lgan qizikishini shakllantirishga munosib hissa qo'shadi.

Bolalarning tafakkurini rivojlantirish bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini tizimli rivojlantirish orqali amalga oshadi. Bunda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini tevarak-atrofdagi



narsa va buyumlarni sanash, taqqoslash, ularning o'lehamlarini solishtirish, ularning o'rni va vaziyatlarini aniqlash, geometrik shakllarni farqlash, tafakkur operatsiyalarining analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, aniqlashtirish kabi turlarini bolalar yoshiga mos holda rivojlantira borish orqali yuzaga keladi. Bu o'z navbatida bolalar tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda bolalarning mantiqiy tafakkur qilish malakalarini egallashlariga zamin hozirlaydi va unga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi qaror va farmonlarning bajarilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinli ta'lim faoliyati sifatining oshirilishi, bolalarga bilim berish bo'yicha zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish joylarda qanday kechayotganligiga qiziqish uyg'otishi tabiiydir.

Shunday ekan, maktabgacha ta'limda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish orqali mustaqil fikrlay oladigan bolalarni maktabga tayyorlashimiz asosiy vazifamiz bo'lmog'i darkor. Bu o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini kuchaytirish, didaktik sharoitlarni aniqlash, ularga bilimli va yuksak pedagogik mahoratga ega pedagog-tarbiyachilarni jalb etishni hamda ularning kasbiy malakasini muntazam oshirib borishni talab etadi. Bu bejj emas albatta, chunki bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida olgan bilimlarini kelgusi maktab faoliyatida amalga oshirishda ular muhim hisoblanadi. Bu davrda bolalarning egallayotgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish amalga oshiriladi. Bu esa kelgusida bolaning maktabga tayyor bo'lib yetishishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishda mahalliy va xorijiy ilg'or tajribalarni o'rgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish, metodik ta'minotni takomillashtirib borish, ta'limiy o'yin faoliyatlar jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali bilim berish sifatini, bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlash lozim. Mazkur jarayonni yangi avlod o'quv adabiyotlari va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bilimli pedagog-tarbiyachilarni jalb etish, uzluksiz ta'lim tizimi bo'yicha tajriba almashish, bilim va ko'nikmalarini tiklash, ularni yangilash, kelajakka qaratilgan mazkur qaror va farmonlarda belgilangan vazifalarni yechishga yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish vosita va usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish hamda



amaliyotga joriy etish asosiy vazifalardan biri bo'lib, ta'limiy o'yin faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lekin bu borada ham bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

Jumladan, bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish doirasidagi muammolarning ilmiy asosda ishlab chiqilmaganligi;

- bolalar bilimining davlat talablari darajasida bo'lishini yanada takomillashtirish zarurati;

- elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish lozimligi;

- o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchi va tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishongan shaxs ma'naviyati va uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish printsiplal ahamiyatga egaligi;

- bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini o'rganishga integratsion yondashuvning o'yinli ta'lim faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi;

- pedagog va tarbiyachilar uchun ushbu sohada zarur metodik qo'llanmalarning kamligi sababli, ularning amaliy faoliyatlarida kiyinchiliklar tug'dirayotganligi va boshqalar.

Bizning nazarimizda muammolarning sabablari quyidagi holatlar bilan izohlanadi: o'yinli ta'lim faoliyatlarda berilgan materiallar bolalarni fikrlashga, mustaqil faoliyat yuritishga undasada, pedagog-tarbiyachilar bu imkoniyatdan yetarli darajada foydalana olmayptilar hamda ularning aksariyati bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalaridan foydalangan holda o'yinli ta'lim faoliyatlarni tashkil etishga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuv ko'nikmalariga, pedagogik texnologiyalar, bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish to'g'risidagi metodik majmualarga ega emaslar. Qayd etilgan holatlar bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishni majburiyat yuzasidan o'zlashtirish ko'nikmasini hosil qiladi. Bilimlarning majburiy tarzda o'zlashtirilishi ularning puxta bo'lmasligiga olib keladi. Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik talablar esa bolalarning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Ular tomonidan matematikaga oid bilimlarning puxta o'zlashtirilishini kafolatlovchi omil bu, bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish hisoblanadi. Mazkur jarayonga yangicha yondashish pedagogik-didaktikaning ilmiy printsiplarini amalga tatbiq etish, hozirga qadar bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalari sohasida yo'l qo'yib kelingan xato va kamchiliklarning asl mohiyatini anglab olish,



ulardan tegishli xulosa chiqarish, bugungi va kelajakdagi vazifalarni to'g'ri belgilab olishga ko'maklashadi. SHundagina, bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish oldiga qo'yilgan vazifalar muvafaqqiyatli amalga oshiriladi. Hozirgi zamon didaktikasi va metodikasida bu borada zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish muammosi ko'pincha ta'lim uzviyligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) Bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalar (innovatsion, pedagogik, axborotlar)dan foydalanish masalasining bugungi ahvolini tahlil qilish;

2) Texnologiyalardan foydalanish jarayonida o'yinli ta'lim faoliyat samaradorligiga erishish tamoyillarini aniqlash;

3) Texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan metodik shakl va usullarning o'yinli ta'lim faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslash;

4) Bolalarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiruvchi turli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

5) Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini o'yinli ta'lim faoliyatlarini mavzuiy rejalashtirish va har bir mavzu yuzasidan bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qo'yiladigan minimal talablar, bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish kabi ilmiy-metodik tavsiyalarni va ta'limiy o'yin faoliyat ishlanmalarini ishlab chiqish;

6) Bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini va bilimlar uzviyligini shakllantiruvchi samarali vositalarni belgilash, bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini uzviy bog'lab o'rganish orqali bolalar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish;

7) O'yinli ta'lim faoliyatda mazkur texnologiyalardan foydalanishga omil bo'luvchi metodik shart-sharoitlarni yaratish;

8). Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq turli shakl, usul, vositalarni amaliyotga joriy etish;

9) Bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalarini o'zaro bog'liq holda amalga oshirish;



10) Tayyorlov guruhi bolalar saviyasini o'rtirib borishning muhim didaktik tamoyillari (oddiydan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab borib, abstraktsiyalash va umumlashtirish) asosida yaxlit tafakkurga erishish;

11) Bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini shakllantirib, keyingi faoliyatlarida ulardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish;

12) Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini ta'limining induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish va mustaqil ishlashning faol vositalari, bilishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantiruvchi metodlaridan unumli foydalanish;

13) Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalariga oid bilimlarning turli manbalaridan olgan bilimlarini umumlashtirgan holda qo'llashni talab qiluvchi muammoli vaziyatlarni yaratish;

14) Bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalari orqali olgan bilimlariga tayanib mushohada yuritish asosida javob topishga undovchi turli muammoli topshiriqlarni muntazam qo'llash;

15) Turli tayyorgarlikka ega bo'lgan bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalari bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarish natijalarini baholashga tabaqalashtirib yondashish;

16) Bolalarning umumiy o'quv ko'nikmalarini muntazam shakllantirib borish;

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning vosita va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish barobarida, ularning bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalari tafakkurini shakllantirish va ta'limiy o'yin faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Dastlab, yangilangan ta'lim hujjatlariga muvofiq tajriba-tayanch o'quv rejasida belgilangan bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarini davlat ta'limi standarti loyihasi asosida dasturda ajratilgan ta'limiy o'yin faoliyat soatlaridan kelib chiqqan holda bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalaridan yangi sinov dasturlarini yaratib, uning mazmunida yuqorida qayd etilgan muammolarni aks ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar:

1. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son qarori.

2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qarori.



3. Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019 yil 13 maydagi 391-son qarori.
4. Ирисбаева Ё. У. Теория детской игры в педагогике и психологии //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.
5. Календарова З.К. Мактабгача таълим: келажак ислохоти// Илим ҳам жамийет. – Нукус, 2018. - № 1. – Б. 65-66.
6. I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. // - “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi. Toshkent, 2018.-59 b.
- 7.Календарова З.К. Болаларда математик тасаввурларни шакллантириш ҳамда ривожлантириш мазмуни // “Мактабгача таълимда Давлат ва нодавлат секторини ривожлантириш” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. 13-май. Б. – 127-128.
8. Kalendarova Z.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetensiyalarini shakllantirish.“Maktabgacha ta’lim: xalkaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar”. – Toshkent, 2021. 27-may.
9. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
10. Eraliyeva, Z. (2023). MTT ning maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni mantiqiy fikrlash va bahs munozarali vaziyatlarda yechim topishga va badiiy nutqqa o'rgatish. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>
- 11.Календарова З.К. Мактабгача та’лимда xorijiy tajribalarni qo’llashning ahamiyati // International scientific and practical conference “international experience and modern approaches in preschool education” 15 MAY, 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11201866>
- 12.Z.K.Kalendarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishning sifatini oshirish va maktabga tayyorlash. «Maktabgacha ta’lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. 24-aprel’ 2024 yil.